

**QASHQADARYO VILOYATI MUBORAK TUMANI 2021-2023 YILLARDA
TASHABBUSLI BYUDJETLASHTIRISH JARAYONI**

Xaydarov Asadbek

Abduxanidov Ibrohim

Makhamatsharipov Nurbek

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

“Moliya” fakulteti 89-guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati Muborak tumanida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan tashabbusli byudjetlashtirish natijalari, ajratilgan mablag'lar miqdori bildirilgan takliflar hamda ovoz berish natijasida g'olib bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tashabbusli byudjet, taklif bildirish, mablag' ajratish, moderatsiya, g'olib loyihani aniqlash, ovoz berish, pudratchini tanlash , shartnoma tuzish.

Kirish.

Bugungi kunda yurtimizda “Tashabbusli byudjet” jarayonlari doirasida fuqarolar tomonidan bildirilgan ijtimoiy takliflarni ovoz berish yo'li orqali aniqlagan holda tegishi g'olib taklifni moliyalashtirish ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari ham fuqarolarning ijtimoiy muammolarini ijobiy hal etish imkoniyatlarini taqdim etuvchi interaktiv usullardan biri hisoblanadi, mazkur mexanizm byudjet mablag'larini sarflanishida fuqarolarning to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishi, shu bilan birga byudjet mablag'larining samarali sarflanishini kuzatib boorish imkoniyatini beradi.

Qashqadaryo viloyati Muborak tumanida tashabbusli byudjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdorini 2021-2023-yillar kesimida quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

(ming so'mda)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0	1447090	1304697
2.	Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar	2918000,0	23364358	29668238
3.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan	1514000	8615000	10920000

3.1.	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘	1417838,4	8398794	10920000
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	53071,5	36984	0
4.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘	1447090,1	1304698	691138

Ushbu jadvalda **Qashqadaryo viloyati Muborak tumani** tashabbusli budgetlashtirish uchun yo’naltirilgan mablag’larni miqdori yillar kesimida mujassamlashtirilgan. Bundan ko’rishimiz mumkunki 2021-yilda yil boshidagi qoldiq qolmagan. 2022-yilda esa 1447090 ming so’mni tashkil etgan bo’lsa 2023-yilda bu ko’rsatkich 1304697 ming so’mni tashkil etgan. 2021-yil bilan 2022-yildagi yil boshidagi qoldiq 142393 mln so’mga ortganligini ko’rishimiz mumkin. Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusli jamg‘armasi” ga o’tkazilgan mablag‘lar 2021-yil bilan 2022-yilni tahlil qiladigan bo’lsak, 20446358 mln so’mga ortgan. Hisobvaraqlardagi qoldiq 2023-yilda qolmaganligini ko’rishimiz mumkin.

Qashqadaryo viloyati Muborak tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar,takliflar soni va sarflangan mablag’lar miqdorini tahlil qilamiz.

2-Jadval

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag’ (ming so‘mda)		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
	Jami	4	17	12	1417838,4	8398794	10920000
1.	Hududiy ichki yo’llar	2	5	7	259075,4	3421995	7700000
2.	Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlash	0	9	2	0	3301007	750000

3.	Maktabgacha ta'lismuassasalarini ta'mirlash va jihozlash	0	0	1	0	0	1200000
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	0	2	1	0	760592	600000
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	0	0	0	0	0	0
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	1	0	0	181725,2	0	0
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari	1	0	0	169700,4	0	0
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)	0	0	0	0	0	0
9.	Boshqa tadbirlar	0	1	1	0	915200	600000

2- jadvaldan Qashqadaryo viloyati Muborak tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar bo'yicha moliyalashtirilgan takliflar soni va sarflangan mablag'lar miqdorini ko'rishimiz mumkin. Bu jadvaldan eng ko'p takliflar kiritilgan loyihalar asosan quyidagilar: Hududiy ichki yo'llar, umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash, Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash va boshqalar. 2021-yilda Hududiy ichki yo'llarni tamirlash va rekansturuksiyalash bo'yicha jami 2 ta taklif kiritilgan. 2022-yilda 5 ta taklif partalga kiritilgan. 2023-yilda 7 ta taklif fuqarolar tomonidan taklif etilgan. 2021-2023-yillar davomida Hududiy ichki yo'llarni tamirlash va rekansturuksiyalash bo'yicha jami 14 ta taklif fuqorolar tomonidan kiritilgan. Hududiy ichki yo'llarni tamirlash bo'yicha aholida talab yuqori bo'lgan. Yuqoridagi jadvaldan ko'rinish turibdiki yildan yilga aholi tomonidan berilgan takliflar soni ortib borgan. Hududiy ichki yo'llarni tamirlash va rekansturuksiyalash bo'yicha 2021-2023-yillarda ajratilgan mablag'larni jami takliflar soni bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, jami 14 taklifga 11,381070 mlrd so'm mablag' ajratilgan. Bundan ko'rinish turibdiki aholida ancha ko'nikma hosil bo'lgan va faollik oshgan. Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash bo'yicha jami 2022-yilda jami 9 ta taklif kiritilgan. 2023-yilda 2 ta taklif kiritilgan. Bunga sabab ovoz yig'ishda muammolar yuzaga kelganligidan takliflar soni keskin kamaygan. Boshqa tadbirlar bo'yicha 2022-yilda 1 ta taklif berilga va unga 915,2 mln so'm mablag' ajratilgan. 2023-yilda ham 1 ta taklif

berilgan va 600 mln so'm mablag' ajratilgan. Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, aholida tashabbusli byudjetlashtirish bo'yicha ko'nikma hosil bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

3-jadval

Ushbu jadvaldan **Qashqadaryo viloyati Muborak tumanida** Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalarini yillar kesmida ko'rib chiqamiz.

(ming so'm)

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar		4247,40	3195,84
Mahalliy budgetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari		3141,2	3204,6
Tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	9109,0	1956,3	1380,2
Shu jumladan			
Erkin qoldiq mablag'lari	500800	12131,4	19000
Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi		922120	
Iqtisod qilingan mablag'lar			1304,697
Qo'shimcha ajratilgan			
PQ-5250ga asosan			
PQ-409ga asosan			
PQ-117ga asosan			
Jami ajratiladigan mablag'lar	509909	943596,3	28085,337

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining, "Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomi"da Tashabbusli byudjet loyihalari g'oliblarini moliyalashtirish tartibi keltirib o'tilingan.

Unga ko'ra quyidagilar tashabbusli budget jarayonini moliyalashtirishga yo'naltiriladi: tuman (shahar)lar budgetlarining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 5 foizi; tuman (shahar) budgetlari qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foizi; Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining budgetlari qo'shimcha mablag'larining 30 foizi; tuman (shahar) budgetlarida ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ko'zda tutilgan mablag'lar; vazirlik va idoralarning tegishli davr uchun tasdiqlangan rivojlantirish dasturlari doirasida ko'zda tutilgan mablag'lar.

Tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 2021-yilda jami 4247400 so'm ajratilgan. Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi 2022-yilda jami 319584 ming so'mni tashkil etgan. 2021-2023-yillarda Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi bo'limganligini jadvaldan ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-tonli qarori ijrosi amal qilish muddati boshlangunga qadar mablag`lar tuman xokimligining maxsus (jamoatchilik tashabbusi jamg' armasi) xisob raqamiga emas yani to'g'ridan ijrosini taminlovchi byudjet muassasiga o'tkazib berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3917-tonli qaroriga asosan Halq deputatlari Muborak tuman kengashining 30.01.2021 yildagi 91/19-06 sonli qaroriga asosan erkin qoldiq mablag`lari hisobidan 495.0mln so'm va 12.04.2021 yildagi 117/23-06 sonli qaroriga asosan 2021 yil 1-chorak qo'shimcha tushgan daromadlari hisobidan 581.0 mln so'm jami 1076.0 mln so'm mablag` tuman xokimining qarorlariga muvofiq jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman xokimligi obodonlashtirish boshqarmasiga o'tkazib berilib ishlar to'lig'icha amalga oshirilgan.

4-jadval

Qashqadaryo viloyati Muborak tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihibar tarkibi, jami to'lagan ovozlar soni, online ovozlar, oflayn ovozlar, sms orqali ovozlar sonini quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlar soni	Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (ming so'm)
2021-yil			
1.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1299	300000
2.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	1408	450000
2022-yil			
1.	Sariq mfy va mashal mfy boglab turuvchi 1km 500m asfalt qilish	3311	950000
2.	Qarliq mfy 32-maktabidagi xonalarni tamirlash	2926	250000
3.	Qarliq mfyda 10-maktabni kapital tamirlash	2366	300000

4.	Mashal mfyda yollarga 6km iborat asfalt yotqizish	2270	500000
2023yil			
1.	1700 metr piyodalar yo'lagi va quyosh paneli o'rnatish	3071	100000
2.	Trotuar va quyosh paneli yoritish tizimlari o'rnatish	2971	800000
3.	2500 metrga asfalt qoplamasi yotqizish	2804	1200000
4.	6dona 150kv transformator va 150dona biton stalbalar o'rnatish	2778	600000
5.	Tibbiy va maishiy jixozlar olish Muborak t. tibbiyat birlashmasi	2605	600000
6.	13-maktab sinf xonalarini kapital tamirlash	2364	450000
7.	Xitoy va obod turmush maxallasiga 90 o'rinali bog'cha tashkil qilish	2178	1200000
8.	Sport maktab hududiga sun'iy qoplamali futbol o'yingohi qurish	2140	300000
9.	Qorabog obodlik qabriston Yo'llarini 200metr yo'llarini qurish	2078	100000

Qashqadaryo viloyati Muborak tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilhan loyihalar tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, 2021-yilda jami 2 ta loyiha g'olib deb topilgan. Bular quyidagilar: Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash, Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash. Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash bo'yicha 1299 ta ovoz bilan g'olib deb topilgan. Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash bo'yicha esa 1408 ta ovoz bilan g'olib bo'lishgan. 2022-yilda taklif qilingan tashabbuslar quyidagilar: Sariq mfy va mashal mfy boglab turuvchi 1km 500m asfalt qilish, Qarliq mfy 32-maktabidagi xonalarni tamirlash, Qarliq mfyda 10-maktabni kapital tamirlash. Sariq mfy va mashal mfy boglab turuvchi 1km 500m asfalt qilish bo'yicha jami 3311 ta ovoz bilan g'olib bo'lishgan. Bunda 493 tasi online ovozlar, 2818 tasi sms orqali ovoz berilgan. **Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'** miqdori **250000 ming so'mni tashkil etgan.** **2023-yilni ko'radigan bo'lsak, jarayon yanada qizg'in kechgan.** Jami 9ta loyiha g'olib deb topilgan. 2500 metrga asfalt qoplamasi yotqizish bo'yicha jami 2804 ta ovoz to'plangan. **Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'** miqdori **1200 mln so'mni tashkil etgan.**

2022-2023-yllarni eng ko'p va eng kam ovoz to'plagan loyihalarni to'plagan ovozini ko'radigan bo'lsak ovozlar soni ko'paygan ya'ni loyihalarga ovoz berishda ishtirok etuvchi faol fuqarolar qatlami ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, Tashabbusli byudjetlashtirish fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun mahalliy byudjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sarflash yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilishga xizmat qilmoqda. Biz yuqorida jadvallardan Qashqadaryo viloyati Muborak tumanini 2021-2023-yillarda tashabbusli byudjetlashtirish jarayonida amalga oshirilgan ishlar salmog'ini tahlil qilib chiqdik. Aholi tur mush tarzi uchun muhim bo'lgan madaniy-maishiy sharoitlarni yaxshilash uchun byudjet mablag'lari ajaratishda aholining bevosita ishtirok etayogani byudjet mablag'larini sarflanishida jamoatchilik nazorati o'rnatilayotgani quvonarli hol, albatta. Aholi kundalik hayot tarzi uchun muhim bo'lgan masalalar echimiga yuqorida emas, balki quyi tizimdan bildirilgan takliflar asosida mablag' ajratilayotgani ko'plab masalalar echimida qo'l kelmoqda. Aholini qiyab kelayotgan muammolar shu tashabbusli byudjet orqali hal bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bu bilan aholi orasida hamjihatlik, birdamlik, ahillik, yuzaga kelganini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda 2019-yildan buyon o'tkazilib kelinayotgan Tashabbusli byudjet jarayonlari mazkur sohaning insonlar hayotidagi o'rni qanchalik dolzarbliji va ushbu jarayon jamiyatimizdagi mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim dastak sifatida xizmat qilishini yana bir bor isbotlab berdi. Bu esa o'z navbatida mazkur jarayonni yanada takomillashtirish, joriy yilda kuzatilgan kamchiliklarni kelgusida takrorlanmaslik hamda jarayon bilan bog'liq muammolarni tizimli ravishda hal etishda xorijiy ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganishni talab etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент: "Шарқ. 2010;804.
3. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent: "Iqtisod-moliya 84 (2008).
4. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
5. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA. 2007.
6. Маликов ТС. Ҳайдаров НХ "Молия: умумдавлат молияси". Ўкув қўлланма. 2009.
7. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.: "Iqtisod-moliya. 2019.
8. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
9. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.
10. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш ўйлари. Т. 2017

- 11.У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
- 12.У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-хуқуқий асослари - Science and Education, 2022
- 13.Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
- 14.UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
- 15.Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффоғлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
- 16.Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
- 17.Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустакиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
- 18.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
- 19.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
- 20.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
- 21.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
- 22.У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг хуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
- 23.G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
- 24.Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
- 25.Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журналы. 2020.
- 26.Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журналы. 2022.
- 27.Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
- 28.Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
- 29.Ikramjon Masharipov. Yangi O‘zbekistonda zamonaviy fuqarolik jamiyatni institutlarining rivojlanish jarayonlari. Общество и инновации.2024